



NAVOIY VILOYATINING IJTIMOIIY IQTISODIY RIVOJLANISHINING ASOSIY DRAYVER YO'NALISHLARI

O'roqova Shaxzoda

Karmana tumani 1-sonli texnikum

Menejment fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18051328>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 23-dekabr 2025 yil

Nashr qilindi: 25-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

*mintaqaviy o'sish, tarmoq
strukturalari, rag'batlantiruvchi
omil, to'qimachilik, qurilish
materiallari, charm-poyabzal
sanoati, qishloq xo'jaligi.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy o'sishi, ularning tabaqalanishi, iqtisodiyotda ishlab chiqarishning tarmoq strukturalidagi o'zgarishlar ro'y berayotgan Navoiy viloyati tahlil qilinadi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2022-yil 19-dekabrda yig'ilishdagi, Navoiy tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi va kelgusi yilda uni rivojlantirish bo'yicha barcha prognozlar yoritiladi.

Globallashuv jarayonlarining kuchayishi, shuningdek, jahon iqtisodiyotining bugungi holati kelajakda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun mamlakatimiz va uning hududlari iqtisodiyoti oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois yangi voqeliklarni anglash, mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlashning usul va yondashuvlarini aniqlash bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarni har tomonlama va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan optimal va samarali foydalanish – Harakatlar strategiyasida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Binobarin, O'zbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tendentsiyalarini tahlil qilish rivojlanish darajasidagi mavjud farqlarni va hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni, ushbu hududlarda salohiyatdan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq sabablarni aniqlash imkonini beradi. Mintaqalar, mavjud sanoat tuzilmasi va o'sishga ta'sir qiluvchi boshqa ko'plab omillarga qarab, kelajakda hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun samarali siyosatni ishlab chiqish imkonini beradi[1].

Mana shunday iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining infografikasida Navoiy viloyatining so'nggi besh yillikdagi rivojlanish yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Navoiy viloyati — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1982-yil 20-aprelda Buxoro va qisman Samarqand viloyatlari hududlaridan tashkil etilgan. 1988-yilda ma'muriy birlik sifatida tugatilib, 1992-yil boshida qayta tiklandi va Navoiy viloyati nomini oldi[2]. Navoiy viloyati mamlakatimizda hududiy jihatdan eng katta viloyat bo'lib, Qoraqalpog'istondan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Uning umumiy hududi 110,99 ming kv. kmni tashkil etadi (1-rasm). Viloyat o'ziga xos tabiiy sharoitiga ko'ra yirik uch qismga bo'linadi: viloyatning shimoli-g'arbiy qismini bag'rda ne-ne sir-sinoatlarni yashirib yotgan Qizilqum cho'li egallagan. Janubi-

sharqiy qismida Nurota tog' tizmalariga tegishli Qoratog', Oqtog' singari tog'lar bo'y cho'zgan bo'lsa, Zarafshon daryosi vohasining O'rta qismida viloyatning dehqonchilik zonasi o'rnashgan. Viloyat shimoldan va shimoli-sharqdan Qozog'iston respublikasi hududi bilan, janubi-sharqdan mamlakatimizning Jizzax, Samarqand, janubdan Qashqadaryo, janubi-g'arbdan esa Buxoro viloyatlari bilan chegaradoshdir[3].



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining Navoiy viloyati (qizil rangda ko'rsatilgan).

Navoiy mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadigan viloyatlardan biri hisoblanadi. Bu, avvalo, viloyatda yer osti va yer usti tabiiy boyliklarining nihoyatda mo'lligi, bu boyliklarni qazib olish va qayta ishlash uchun zamonaviy talablarga javob beradigan yirik sanoat korxonalarining mavjudligi bilan o'lchanadi. Globallashuv sharoitda Navoiy viloyatining tashqi iqtisodiy faoliyati tobora hududning ishlab chiqarish tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani shakllantirishni jadallashtiruvchi, shuningdek, iqtisodiy rivojlanish uchun jozibador va samarali rag'batlantiruvchi omilga aylanib bormoqda. Bu raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, qo'shimcha investitsiya resurslarini ta'minlash, ish o'rinlari yaratish imkonini bermoqda.

Rivojlanayotgan qulay sarmoyaviy muhit moliyaviy resurslarni ishlab chiqarishga, korxonalarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga investitsiyalashga xizmat qilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi va kelgusi yilda uni rivojlantirish bo'yicha barcha prognozlar davlat rahbari tomonidan 2022-yil 19-dekabrdagi yig'ilishda bayon etilgan aniq parametrlar bilan belgilandi. Sanoatning elektrotexnika, to'qimachilik, qurilish materiallari, charm-poyabzal sanoati, qishloq xo'jaligi va farmatsevtika kabi tarmoqlari 50-60 foizga o'sishi kerakligi belgilanib olindi. Hududlarda qariyb 8 milliard dollarlik 300 ga yaqin yirik loyiha ishga tushiriladi. Bu hududiy sanoat ishlab chiqarishini 11 foizga oshirish imkonini beradi. Hududlarda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va iqtisodiy o'sishga erishishni ko'zda tutuvchi loyihalar muhim o'rin tutmoqda. Bu keng ko'lamli faoliyatga ega loyihalar. Berilgan o'sish sur'atlariga erishish uchun esa muqobil savdo yo'llari

va savdo bozorlarini izlash va barpo etish zarur, bu esa bugungi kunda mamlakatning tashqi iqtisodiy rivojlanish strategiyasi aynan shunga qaratilgan.

Markaz ekspertlari viloyatda so'nggi yillarida yuz bergan faol islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy o'zgarishlarini taqdim etdi.

2017-2020 yillar davomida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 20 foizga oshib, 12 trln. so'mdan 49,7 trln so'mga yetdi. Shu davr mobaynida YaHMning sanoat va qurilish sohasi 48,1 foizdan 72,6 foizga o'sdi. Bozor xizmatlari 47 foizga ko'payib, 2,6 trln. so'mdan 5,8 trln so'mga yetdi.

So'nggi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 10,7 trln so'mdan 65,1 trln so'mga yetib, 13 foizga oshdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 11 foizga o'sib, 2016 yildagi 5,3 trln. so'mdan 2020 yilda 11,9 trln. so'mni tashkil etdi. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2016 yildagi 10,4 ming donadan 2020 yilda 21,4 ming donaga 105 % ko'paydi. Infratuzilmani rivojlantirish sohasida 2016-2020 yillarda 67 km avtomobil yo'llari va 649 km suv ta'minoti tarmoqlari yotqizildi. Shu davr mobaynida 111 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi[3].

Xulosa. Navoiy viloyati iqtisodiy rivojlanishda o'zining strategik o'rnini egallagan bo'lib, unda 2019-2023 yillar davrida sifatli iqtisodiy rivojlanish yuzaga keldi. Bu davr davomida Navoiyda bir nechta muhim loyihalar amalga oshirildi va viloyatning iqtisodiyoti oshirildi. Bu loyihalar orasida quyidagilar katta ahamiyatga ega:

Navoiy erkin iqtisodiy zonasi: Navoiyda erkin iqtisodiy zonasining ishga tushirilishi va uning kengaytirilishi viloyat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Bu zonada yirik xususiy iqtisodiyot sohaslariga investitsiyalar jalb etiladi va mahalliy ishlab chiqarish tashkilotlariga afzalliklar beriladi.

Mineral resurslar va chiqindilarni ishlash: Navoiy viloyati murakkab mineral bog'lovchilari, shu jumladan zavqiy metal, olov, va qizilni o'z ichiga oladi. Bu resurslar keng qo'llanilishi va ulardan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilishi Navoiy iqtisodiyotini kuchaytiradi.

Makro-iqtisodiy islohotlar: Viloyat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun kerakli makro-iqtisodiy islohotlar ham amalga oshirilgan. Bu islohotlar o'z ichiga soliq tizimi, investitsiyalar, korxona faoliyati sharoitlarini yaxshilash va boshqa sohaslar bo'lib, viloyatni iqtisodiy rivojlanish yo'nalishida ko'rsatuvlar olib kelmoqda.

Transport infratuzilmasi: Navoiyda transport infratuzilmasi, xususan avtomobil yo'llari va temir yo'llar, rivojlanayotgan bo'lib, bu viloyatni xorijiy va mahalliy bozorlar bilan bog'lab turishda muhim ahamiyatga ega.

Investitsiyalar va xorijiy moliyaviy ko'rsatkichlar: Navoiy viloyatiga xorijiy moliyaviy ko'rsatkichlar va investitsiyalar kiritish viloyat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, investitsiyalar, texnologik yangilanishlar va ish joylari yaratish orqali iqtisodiy rivojlanishni sarmoya ko'rish uchun muhim omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Д.Д.Комилжонова.СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА Вестник магистратуры. 2022. № 4-2 (127)
2. Wikipedia.uz
3. <https://review.uz/uz/post/infografika-navoiy-viloyatining-besh-yillik-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlanishi>
4. <https://www.navstat.uz/uz/rasmiy-statistika/release-calendar-2>

5. Рахматуллина А.Д. Оценка структурных изменений в экономике регионов. / Автореферат диссертации соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Уфа, 2013.



INNOVATIVE
ACADEMY